Ha, asl san’at, puxta tuzilgan, maqsadli va mazmunli asarlar sinovdan o‘tadi va qadrlanib yashaydi, ammo **mazmunsiz, asosiy g‘oyadan yiroq, vaqtinchalik e’tibor qozongan asarlar** vaqt o‘tishi bilan unutiladi. Chunki bunday “vayrona” asarlar o‘quvchining qalbiga chuqr iz qoldirolmaydi. Vaqt o‘tishi bilan bunday asarlarning haqiqiy qiymati ayon bo‘ladi — ular **adabiyot tarixida iz qoldirmaydi.**

Hayotiy misol bilan izoh:

- Klassik adabiyot vakillari — Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov kabi mualliflarning asarlari puxta bino qilingan, g‘oyasi aniqligi, tuzilishi mustahkamligi bilan bugungacha qadrlanmoqda.
- Biroq faqat shov-shuv uchun yozilgan, g‘oyaviy poydevori bo‘limgan ko‘plab zamonaviy asarlar muallifi va mazmuni bir necha yil ichida unut bo‘ladi.

9. (Mulohaza).

1) Tabiat tasvirlari (qondek qizargan tok barglari, unsiz to‘kilayotgan o‘rik xazonlari, yakkash sadolar) matnning umumiy kayfiyatiga qanday ta’sir qiladi?

Bu tasvirlar matnning umumiy ruhiy holatini **sokin, chuqr mulohazali, biroz g‘amgin va falsafiy** ohangga buradi. Tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar — kuzning sokinligi, barglarning to‘kilib borishi — inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq tarzda

talqin etiladi. “Qondek qizargan barglar” — iztirob, ichki kechinmalarni, “unsiz to‘kilayotgan barglar” — so‘zsiz kechayotgan ayrılıq, vaqt o‘tayotgan hayotni anglatadi. Bu tasvirlar orqali **vujuddagi ruhiy o‘zgarishlar, anglash va kechirim mavzulari** chuqurlashtiriladi.

2) Ammamning so‘nggi gaplari inson ruhiyati va axloqiy poklanish haqidagi qanday fikrlarni ilgari suradi?

Ammamning so‘nggi gaplari — “Qaniydi, Olloh odamzotning ko‘nglidagi qurtlarni tozalaydigan jonzot yaratsa” — juda teran ma’noga ega. Bu fikr inson ruhiyati va axloqiy poklanishga bo‘lgan ehtiyoj haqida. Inson ko‘nglida hasad, yolg‘on, nafrat, rashk kabi illatlar bor. Agar daraxtni qizilishton tozalasa, odam ko‘nglini kim poklaydi? Bu savol orqali muallif insonni o‘z ustida ishlashga, ko‘nglini tozalashga chaqiradi.

3) U inson qalbidagi “qurtlar” deganda nimani nazarda tutgan bo‘lishi mumkin?

Bu ramziy ifoda orqali **nafs, hasad, manmanlik, adovat, yolg‘on, xudbinlik kabi insoniy illatlar** nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Qurt daraxtni ichidan yemirib bitkazgani kabi, bu illatlar ham inson qalbini asta-sekin ishdan chiqaradi, uni halovatdan, vijdondan, poklikdan mahrum qiladi. Ammo bu “qurtlar”ni yo‘q qilish — insonning o‘z irodasiga, anglashiga, tavba va to‘g‘ri yo‘lga qaytishiga bog‘liq. Bu fikr — **inson qalbi bilan ishlash zarurligini, ichki tozalikning ustuvorligini** eslatadi.

10. (Mulohaza).

1) Matnda “dunyoda bundan arzon narsa yo‘q” degan fikr ilgari surilgan. Mehr va shirin so‘zning narxi yo‘qligi, lekin odamlarga yetishmasligi sabablarini qanday izohlash mumkin?

Bu fikr chuqur ma’naviy-axloqiy haqiqatni anglatadi: **mehr va shirin so‘z hech qanday moddiy xarajat talab qilmaydi**, ammo u inson qalbini iliqlik bilan to‘ldiradi. Shunga qaramay, bu tuyg‘ular ko‘pchilik odamlar hayotida kam uchraydi. Bunga asosiy sabab — **insonlarning o‘zarosov uqlashuvi, bag‘rikenglikning kamayishi, shoshqaloq hayot tarzi, manfaatparastlik va hissiy befarqlikdir**. Odamlar mehrni o‘zlarida bor narsaning qiymatini bilmaydigan, unga vaqt ajratmaydigan bo‘lib qolishgan.

2) Fikringizni hayotiy dalillar bilan asoslang.

- Ota-onasining mehrini his qilmagan bolalar ko‘pincha sovuqqon, ishonchsiz bo‘lib ulg‘ayadi. Bu esa keyinchalik ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishini qiyinlashtiradi.
- Keksalar uyida yashayotgan onaxonning oddiy so‘zleri: “Faqat bir marta telefon qilib, holimni so‘rasa bas edi...” — bu mehrga bo‘lgan ehtiyojni ochiq ko‘rsatadi.
- Ba’zida bir shirin tabassum yoki samimiyy “rahmat” so‘zi insonning butun kunini yoritadi. Bu esa mehr va shirin so‘zning **narxsiz, ammo bebahoboylik ekanini isbotlaydi**.

— Jamiyatda muomala madaniyati, hurmat, ehtirom kabi qadriyatlar pasaygani uchun insonlar mehrni oddiy narsa deb o‘ylab, uni ko‘rsatmay qo‘yishgan. Aslida esa, bu — **insoniylikning eng yuksak ifodasidir.**

13	Xalq og‘zaki ijodi	Xalq og‘zaki ijodiga oid asarlar haqida to‘g‘ri ma’lumotlarni tasniflay oladi.	B	Qisqa javobli	12
----	--------------------	--	---	---------------	----

1. Xalq og‘zaki ijodiga oid ma’lumotlarning tartib raqamini yozing.(Bilish)

1. Dostonlarda voqealar bayoni, obrazlar o‘rtasidagi dialoglar, ularning ruhiy holatiga ijrochining munosabati faqat nasrda ifodalanadi.
2. Qahramonlarning hayoti, boshidan kechirgan voqealari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalari baxshilar (ular “shoirlar” deb ham atalgan) tomonidan bayon qilinadi.
3. O‘zbek xalq dostonchiligida «Go‘ro‘g‘li» turkumi tarkibida oltmishdan ortiq doston mavjud.
4. Xalq dostonlarida qahramon har doim o‘z oti bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.
5. “Doston” so‘zi adabiy atama sifatida faqat xalq og‘zaki ijodidagi yirik hajmli asarlarni anglatadi.

Javob: 1, 2, 4

2. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarning tartib raqamini yozing. (Bilish)

1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijro etgan.
2. Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi qilishi bilan rivojlanib boradi.
3. Go‘ro‘g‘lining ota-onasi – Ravshan va Bibi Hilol ham bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetadi.
4. Hamza – Rustam kelbatli, pahlavon, qo‘rqmas va jasur, o‘ziga ishongan podshoh.
5. Rayhon arab Ahmadbekning bir shaharga safar qilganini eshitadi va paytdan foydalanib Xoljuvonni olib qochish uchun Turkman yurtiga keladi.

Javob: 2, 3, 5

3. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarning tartib raqamini yozing.(Bilish)

1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijro etgan.
2. Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi qilishi bilan rivojlanib boradi.
3. Go‘ro‘g‘lining ota-onasi – Ravshan va Bibi Hilol ham bolaligida Zargar eliga borib qolib, musofirchilikda voyaga yetadi.
4. Rayhon arab – Rustam kelbatli, pahlavon, qo‘rqmas va jasur, o‘ziga ishongan podshoh.
5. Rayhon arab Ahmadbekning bir shaharga safar qilganini eshitadi va paytdan foydalanib Xoljuvonni olib qochish uchun Turkman yurtiga keladi.

Javob: 1

4. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamini yozing. (Bilish)

1. Odilxon podshoh Yovmit elining xoni Qovishtixonning bozorchi savdogarlarini yo‘lda talab oldi.
2. To‘liboy-ajab bir odobli, chiroyli, otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo‘ldi.
3. Holmon vazir aqli, uzoqni ko‘zlab ish qiladigan obraz edi.
4. Odilxon - “Yovmitlarni darrov o‘ldiraman, yurtini olaman, molini o‘lja, ayollarini yebir-yesir qilaman», –dedi.
5. Gajdumbek kamsiz bo‘ldi, davlati juda katta, o‘ziga bir yaxshi joy solmoqchi bo‘lib, shahdan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi.
6. Holmon vazir Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman deb, har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, mushkning suvini berar edi.

Javob: 2, 3, 5

5. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni topib, raqamlarda ifodalang. (Bilish)

1. Odilxon podshoh Yovmit elining xoni Qovishtixonning bozorchi savdogarlarini yo‘lda talab oldi.
2. To‘liboy-ajab bir odobli, chiroyli, otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo‘ldi.
3. Holmon vazir aqli, uzoqni ko‘zlab ish qiladigan obraz edi.

4. Odilxon - “Yovmitlarni darrov o‘ldiraman, yurtini olaman, molini o‘lja, ayollarini yebir-yesir qilaman”, –dedi.
5. Gajdumbek kansiz bo‘ldi, davlati juda katta, o‘ziga bir yaxshi joy solmoqchi bo‘lib, shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi.
6. Holmon vazir Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman deb, har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, mushkning suvini berar edi.

Javob: 1, 4, 6

6. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda ifodalang.(Bilish)

1. Odilxon podshoh insoniy fazilatlari bilan Shohdorxonidan farq qilgan obraz.
2. Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi bilan boshlanadi.
3. Holmon vazir juda ayyor, har narsadan o‘z manfaatlarini ustun qo‘yadigan obraz edi.
4. To‘liboy sinchi aqli, odobli, otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi edi.
5. Shohdorxon tushida Yovmit elidan kelgan ikki bo‘rini ko‘rganini , g‘alaba ramzi deb tushunadi.
6. Rustam Xoljuvonning suluvgagini eshitib, kelib ko‘rgan va unga oshiq bo‘lib qolgan edi.

Javob: 1, 2, 4

7. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda ifodalang. (Bilish)

1. Odilxon podshoh insoniy fazilatlari bilan Shohdorxonidan farq qilgan obraz.
2. Doston voqealari Zargar yurtining podshosi Shohdorxonning Yovmit yurtiga bosqinchilik urushi bilan boshlanadi.
3. Holmon vazir juda ayyor, har narsadan o‘z manfaatlarini ustun qo‘yadigan obraz edi.
4. To‘liboy sinchi aqli, odobli, otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi edi.

5. Shohdorxon tushida Yovmit elidan kelgan ikki bo‘rini ko‘rganini , g‘alaba ramzi deb tushunadi.

6. Rustam Xoljuvonning suluvgagini eshitib, kelib ko‘rgan va unga oshiq bo‘lib qolgan edi.

Javob: 3, 5, 6

**8. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni toping.
(Bilish)**

1. Shohdorxon	A) Ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz suluv xushro‘y
2. Holmon vazir	B) Otlarning zotini, naslini, yoshini fe’l-atvorini yaxshi biladigan kishi
3. Odilxon	C) O‘zing tug‘may ul bo‘lmas, sotib olmay qul bo‘lmas.
4. Hamza	D) Lashkari yulduzdan ham ko‘p.
5. Sinchi	E) Elchi yubormay birdan zo’rlik qilib yov yubormoq podsholardan lozim emas.
6. Ravshanbek	G) To‘pga solib otib yuborilgan podshoh

Javob:

1	2	3	4	5	6
A	B	C	D	E	G

**9. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni toping.
(Bilish)**

1. Shohdorxon	A) Ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz suluv xushro‘y
2. Holmon vazir	B) Otlarning zotini, naslini, yoshini fe’l-atvorini yaxshi biladigan kishi

	biladigan kishi
3. Odilxon	C) O‘zing tug‘may ul bo‘lmas, sotib olmay qul bo‘lmas.
4. Hamza	D) Lashkari yulduzdan ham ko‘p.
5. Sinchi	E) Elchi yubormay birdan zo’rlik qilib yov yubormoq podsholardan lozim emas.
6. Ravshanbek	G) To‘pga solib otib yuborilgan podshoh

Javob:

1	2	3	4	5	6
D	F	G	C	B	A

10. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Odilxonning Mari yurtiga qilgan hujumining asosiy sababi nima edi? (Bilish)

- A) Qovishtixonning Yovmit yurti podshosiga itoat etishdan bosh tortgani
- B) Mari yurti beglarining Yovmit eliga tegishli savdogarlarni talagani
- C) To‘liboy sinchining qasos olish istagi
- D) Yovmit va Mari o‘rtasida qadimiy adovat mavjud bo‘lgani

Javob: B

14	Qadimgi turkiy adabiyot	Badiiy asar haqida berilgan ma'lumotlarni to‘g‘ri aniqlay oladi.	B	Qisqa javobli	12
----	----------------------------	---	---	------------------	----

1. Muallif asar muqaddimasida kitob asosi to‘rtta majoziy unsurdan tashkil topganligini ta’kidlaydi: adolat, davlat, aql, qanoat. Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini mos tartib raqam bilan ifodalang. (Bilish)

- 1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at-turk”
- 2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u biling”
- 3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
- 4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 2

2. Muallif “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’ (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she’r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlardan, maqollardan keltirdim”-deydi. **Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing.** (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug’ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

3. Muallif “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’ (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she’r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlardan, maqollardan keltirdim”-deydi. **Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini raqamlarda yozing.** (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug’ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

4. Asarning asosiy maqsadi axloqiy pand-nasihat berish, insoniyatni ezgulikka chorlash va diniy bilimlarni targ‘ib qilish bo‘lib, sabr-toqat, halollik, adolat, taqdir va inson erkinligi kabi falsafiy tushunchalar yoritilgan. Kitob Qur’on oyatlari, hadislarga asoslangan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan badiiylik va jonli tasvirlar ham uchraydi.. Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqam bilan ifodalangan. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug’ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 3

5. Asarning asosiy maqsadi – turkiy tillarning arab tili bilan teng darajada rivojlanganligini ko‘rsatish hamda turkiy xalqlar madaniy merosini saqlab qolish bo‘lgan. Asar Abulqosim Abdulloh bin Muhammad al-Muqtadoga bag‘ishlangan bo‘lib, unda turkiy so‘zlarning arabcha izohlari berilgan... Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

6.“Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’ (qofiyali nasr)lar, maqol lar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she‘r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she‘rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlardan, maqollardan keltirdim”, Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

7. Umumiy hajmi olti ming olti yuz baytdan ortiq bo‘lgan dostonning bir yarim yilda yozilishi adibning juda katta tajribasi va ulkan mahoratidan dalolatdir. Asar Qashqarda tugatiladi va mamlakat eligi – hukmdori Tavg‘ach ulug‘ Bug‘ro xonga tortiq qilinadi.

Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 2

8. Muallif turk tilining nozik bilimdoni va tolmas targ‘ibotchisidir. Yozuvchu bu asari orqali “arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o‘zib borayotgan turk tilini” ko‘klarga ko‘taradi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini mahorat bilan ko‘rsatib beradi.

Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

9. Asarda adabiyotshunoslikka doir anchagina atamalar bor. Muallif hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar haqida gapirib o‘tgan. Shuningdek, ayrim adabiy hodisalar haqida maxsus izohlar bergan.

Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 1

10. Asar voqealari unchalik murakkab emas. Ular ramziy qahramonlarning hayotiy faoliyati va ularning o‘zaro suhbatlari asosiga qurilgan. Asarda to‘rtta yetakchi qahramon bor: Kuntug‘di – Adolat timsoli. Oyo‘ldi – Davlat timsoli. O‘gdulmish – Aql timsoli. O‘zg‘urmish - zohid

Ma’lumotlar qaysi asar haqida ekanligini tartib raqamda yozing. (Bilish)

1. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ot at- turk”
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”
3. Nosiriddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”
4. Yassaviy “Hikmatlari

Javob: 2

15	Mumtoz adabiyot	Badiiy asar mazmuni haqida berilgan ma'lumotlarni farqlay oladi.	Q	Qisqa javobli	12
----	-----------------	--	---	---------------	----

1. “Saddi Iskandariy” dostonida keltirilgan Vatan va vatanparvarlik haqidagi hikmatli so‘zlarning tartib raqamini yozing. (Qo‘llash)

1) Ayol-u vatan uzra to joni bor,

Kishi harb etar toki imkonи bor.

2) Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranji g‘urbat havas aylama.

3) Taomeki, ul mujibi komdur,

Gar o‘t ranjini tortmas – xomdur.

4) Musofir bo‘l, ammo vatan ichra bo‘l,

Tila xilvat-u anjuman ichra bo‘l.

Javob: 1, 2, 4

2. “Saddi Iskandariy” dostonida o‘limi oldidan Doro Iskandardan iltimos qilgan narsalarni tartib raqamda yozing.

1) suiqasd qilganlarni jazolash;

2) unga suiqasd qilganlarga bosh bo‘lgan xotinidan qizini uzoqlashtirish;

3) qizi Ravshanakning kayoniylar podsholigining merosxo‘ri ekanligini inobatga olish;

4) Ravshanakni o‘z xonadonining munavvar shamiga aylantirish;

5) qavm-qarindoshlariga zulm qilmaslik.

Javob: 1, 3, 4, 5

3. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamlarda yozing.

- 1) Dostonda Iskandarning harbiy yurishlari bat afsil tasvirlangan jang nomas asar.
- 2) Doston Faylaqusning Iskandarni topib olishi bilan boshlanadi.
- 3) Faylaqus Doroga har yili ming tilla tuxumdan iborat boj to‘lar edi.
- 4) Doro jang paytida o‘ng yonida ilm-kamolot egalari, so‘l tomonida esa harbiy rahbarlar qurshovida bo‘lgan.
- 5) Iskandar Hirot, Samarqand shaharlarini buniyod qilgan.

Javob: 2, 3, 5

4. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarning tartib raqamini yozing. (Qo‘llash)

- 1) Dostonda Iskandar Zulqarnaynning asosiy maqsadi dushmanlarini yengib, o‘z sultanatini mustahkamlash edi.
- 2) Iskandar va tilsimlangan shahar hikoyasida Iskandarning eng muhim sinovi Arastu yordamida tilsimni ochish edi.
- 3) Iskandarning donishmandlar bilan suhbat davomida inson umrining eng qadrli davri keksalikdir degan xulosa beriladi
- 4) Iskandarning Suqrot bilan suhbatida shohning boylikdan ko‘ra adolatga tayanishi muhim ekani ta’kidlangan.
- 5) Iskandar Zulqarnayn vafotidan oldin har qanday boylik va qudrat vaqtinchalik degan xulosaga keladi.
- 6) Iskandar vafoti oldidan qo‘llarini ochiq holda qabrga qo‘yishni vasiyat qiladi, bu bilan dunyodan hech narsa olib ketib bo‘lmaslikni uqtiradi.

Javob: 4, 5

5. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Dostonda Iskandar Zulqarnaynning asosiy maqsadi dushmanlarini yengib, o‘z sultanatini mustahkamlash edi.
- 2) Iskandar va tilsimlangan shahar hikoyasida Iskandarning eng muhim sinovi Arastu yordamida tilsimni ochish edi.

- 3) Iskandarning donishmandlar bilan suhbat davomida inson umrining eng qadrli davri keksalikdir degan xulosa beriladi
- 4) Iskandarning Suqrot bilan suhbatida shohning boylikdan ko‘ra adolatga tayanishi muhim ekani ta’kidlangan.
- 5) Iskandar Zulqarnayn vafotidan oldin har qanday boylik va qudrat vaqtinchalik degan xulosaga keladi.
- 6) Iskandar vafoti oldidan qo‘llarini ochiq holda qabrga qo‘yishni vasiyat qiladi, bu bilan dunyodan hech narsa olib ketib bo‘lmaslikni uqtiradi.

Javob: 1, 2, 6

6. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni raqamlarda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Iskandarning Kashmir yurishida Mallu shahrini sehrli tosh yordamida himoya qilgan edi.
- 2) Iskandar va Arastu o‘rtasidagi falsafiy suhbatning mavzusi inson umrining qadr-qimmati, hayot mazmuni va ilmlarning ahamiyati haqida edi.
- 3) Hindiston shohi Iskandar huzuriga kelganda unga falsafiy kitoblar to‘plamini sovg‘a sifatida taqdim etgan edi.
- 4) Iskandarning yoshligidagi ustozlaridan biri Arastu unga falsafiy tafakkur va hayot haqidagi chuqur bilimlarni o‘rgatgan edi.
- 5) Iskandar vafotidan oldin qo‘llarini ochiq holda qabrga qo‘yilishining sababi shaxsiy ishonchini namoyon etish va olimlarga hurmat ko‘rsatish uchun edi.
- 6) Iskandarning Suqrot bilan suhbatidan shoh daylatni boylik orqali emas, balki adolat bilan boshqarishi kerak degan xulosa qilish mumkin.

Javob: 2, 4, 6

7. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Iskandarning Kashmir yurishida Mallu shahrini sehrli tosh yordamida himoya qilgan edi.
- 2) Iskandar va Arastu o‘rtasidagi falsafiy suhbatning mavzusi inson umrining qadr-qimmati, hayot mazmuni va ilmlarning ahamiyati haqida edi.

- 3) Hindiston shohi Iskandar huzuriga kelganda unga falsafiy kitoblar to‘plamini sovg‘a sifatida taqdim etgan edi.
- 4) Iskandarning yoshligidagi ustozlaridan biri Arastu unga falsafiy tafakkur va hayot haqidagi chuqur bilimlarni o‘rgatgan edi.
- 5) Iskandar vafotidan oldin qo‘llarini ochiq holda qabrga qo‘yilishining sababi shaxsiy ishonchini namoyon etish va olimlarga hurmat ko‘rsatish uchun edi.
- 6) Iskandarning Suqrot bilan suhbatidan shoh davlatni boylik orqali emas, balki adolat bilan boshqarishi kerak degan xulosa qilish mumkin.

Javob: 2, 4, 6

8. “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda yozing. (Qo‘llash)

- 1) Iskandarning Kashmir yurishida Mallu shahrini sehrli tosh yordamida himoya qilgan edi.
- 2) Iskandar va Arastu o‘rtasidagi falsafiy suhbatning mavzusi inson umrining qadr-qimmati, hayot mazmuni va ilmlarning ahamiyati haqida edi.
- 3) Hindiston shohi Iskandar huzuriga kelganda unga falsafiy kitoblar to‘plamini sovg‘a sifatida taqdim etgan edi.
- 4) Iskandarning yoshligidagi ustozlaridan biri Arastu unga falsafiy tafakkur va hayot haqidagi chuqur bilimlarni o‘rgatgan edi.
- 5) Iskandar vafotidan oldin qo‘llarini ochiq holda qabrga qo‘yilishining sababi shaxsiy ishonchini namoyon etish va olimlarga hurmat ko‘rsatish uchun edi.
- 6) Iskandarning Suqrot bilan suhbatidan shoh davlatni boylik orqali emas, balki adolat bilan boshqarishi kerak degan xulosa qilish mumkin.

Javob: 1, 3, 5

**9. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni tartib raqamda yozing.
(Qo‘llash)**

1. Iskandar oddiy harbiy sarkarda bo‘lib, doston faqat jangovar yurishlarni tasvirlaydi.
2. Iskandar ilm-fan va adolat timsoli sifatida tasvirlanadi, doston esa odil podshoh va bilim ahlining yuksakligini targ‘ib qiladi.

- Iskandar kuchli hukmdor bo'lsa-da, shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yanligi uchun mag'lub bo'lgan.
- Iskandar faqat tasavvufiy ramz sifatida keltirilgan, doston esa sof diniy mazmunga ega.
- Doston mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo'lib, Iskandar obrazida olim, adolatlilik hukmdor va harbiy sarkarda sifatlari mujassam.

Javob: 2, 4, 5

**10. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni haqidagi noto‘g’ri ma’lumotlarni tartib raqamda yozing.
(Qo’llash)**

- Iskandar oddiy harbiy sarkarda bo'lib, doston faqat jangovar yurishlarni tasvirlaydi.
- Iskandar ilm-fan va adolat timsoli sifatida tasvirlanadi, doston esa odil podshoh va bilim ahlining yuksakligini targ'ib qiladi.
- Iskandar kuchli hukmdor bo'lsa-da, shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yanligi uchun mag'lub bo'lgan.
- Iskandar faqat tasavvufiy ramz sifatida keltirilgan, doston esa sof diniy mazmunga ega.
- Doston mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo'lib, Iskandar obrazida olim, adolatlilik hukmdor va harbiy sarkarda sifatlari mujassam.

Javob: 1, 3

16	Jahon adabiyoti	Badiiy asardagi voqealar va jarayonlarning kelib chiqish sabablarini to‘g’ri tekshira oladi.	Q	Qisqa javobli	12
----	--------------------	---	---	------------------	----

1. Miguel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romani bosh qahramoni Don Kixot nazarida oddiy narsalarning g‘aroyib tus olishi sababi ko‘rsatilgan tartib raqamini yozing. (Qo’llash)

- Don Kixotning o'ziga xos xayoliy dunyosi, kitoblardan olingan bilimlar va haqiqatni mukammallashtirish istagi.
- Don Kixotning ruhiy kasalligi va haqiqatni idrok etish qobiliyatining yo‘qligi.

3) Don Kixotning yoshligi va hayot tajribasining yetishmasligi.

4) Don Kixotda har doim o'zini va atrofdagilarni aldash istagi.

Javob: 1

2. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romani bosh qahramoni Don Kixotning “Ritsarlik burchi”ni ado etish istagi qanday voqeaga olib keldi va bu voqeaning oqibati qanday bo‘ldi?

A) Don Kixot o‘zining shavkatli ritsarlik burchini ado etib, dehqonni jazoladi va bola uni himoya qilish uchun qo‘llab-quvvatladi.

B) Don Kixot o‘zining jasorati bilan bola va dehqonni zo‘rlab, shafqatsiz jazolashga olib keldi.

C) Don Kixot o‘zining ritsarlik burchini ado etib, dehqonni haqini to‘lashga majbur qildi va bola xotirjam bo‘ldi.

D) Don Kixot dehqonning yomon harakatlarini to‘g‘rilab, bola va dehqonni bir-biriga yordam berishga majbur qildi.

Javob: C

3. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romani bosh qahramoni Don Kixotning bolani himoya qilishdagi xatosi nimada edi?

A) U bola va dehqonning shaxsiy masalalariga bexosdan aralashdi va bola uchun zararli oqibatlar keltirdi.

B) Dehqonni qilichbozlikda yutdi va dehqon endi bola bilan halol ishlashga qaror qildi.

C) U bola uchunadolatni qaror topishga yordam berdi, lekin bola ham o‘zini himoya qildi.

D) U bola va dehqonning muammolarini yechishda yordam berishga urindi, lekin oxirida hushdan ketib o‘zini yo‘qotdi.

Javob: A

4. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romani bosh qahramoni Don Kixot nega shamol tegirmonlariga hujum qilishni xohladi? (Qo‘llash)

A) Ularni yovuz devlar deb o‘ylab va ularni mag‘lub etishni istadi.

B) Tegirmon egalaridan pul talab qilmoqchi bo‘ldi.

C) Tegirmonlarni yoqib, yurtni qutqarish niyatida edi.

D) Sancho Pansa unga bu ishni qilishni maslahat berdi.

Javob: A

5. Migel se Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romanida Don Kixotning mehmonxonaga kelishi bilan bog‘liq qanday xato yuz berdi?

(Qo‘llash)

- A) U mehmonxonani qasr deb o‘yladi va o‘zini ritsarlik unvoniga munosib deb bildi.
- B) U mehmonxonaga kirishga ruxsat berilmadi va tashqarida qolib ketdi.
- C) Mehmonxona xo‘jayini uni qo‘rqtib haydab yubordi.
- D) Mehmonxona mehmonlari uni aldab, barcha narsalarini tortib olishdi.

Javob: A

6. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romanida bosh qahramon Don Kixot nega o‘zini mashhur ritsarlar kabi tutishga harakat qiladi? (Qo‘llash)

- A) Ularning g‘alabalarini o‘zida ko‘rishni xohlagani uchun
- B) O‘z hayotini shon-sharaf bilan bezashni istagani uchun
- C) Haqiqatda ham o‘zini ritsar deb hisoblagani uchun
- D) Uning ruhiy holati va kitoblarga haddan tashqari berilib ketgani sababli

Javob: D

7. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romanida bosh qahramon Don Kixotning sarguzashtlari qanday yakun topadi? To‘g‘ri javobni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

1. U o‘z maqsadlariga erishib, haqiqiy ritsarga aylanadi
2. U o‘z uyiga qaytib, haqiqatni anglab, o‘zining xatolarini tushunadi
3. U yana yangi sarguzashtlarga yo‘l oladi
4. U o‘zini haqiqiy qahramon deb e’lon qilib, yangi urush boshlaydi

Javob: 2

8. Migel de Servantesning “Don Kixotning sarguzashtlari” romanida bosh qahramon Don Kixot shamol tegirmonlarini yovuz devlar deb bilishining asosiy sababi nima ekanligini tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) U ritsarlik romanlarini haddan ortiq o‘qib, haqiqatni noto‘g‘ri qabul qiladi.
- 2) Sancho Pansaning noto‘g‘ri yo‘lboshchiligi uning xatolariga sabab bo‘ladi.
- 3) Uning aql-idroki mukammal bo‘lib, haqiqatni boshqacha talqin qiladi.
- 4) Don Kixotning ko‘zлari yaxshi ko‘rmaydi, shuning uchun adashadi.

Javob: 1

9. Yozuvchi Migel de Servantes “Don Kixotning sarguzashtlari” asarida Don Kixot obrazi orqali inson tafakkurining qanday jihatlarini aks ettiradi? Javobingizni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Xayolot va realizmning kurashini
- 2) Mutlaq haqiqatni anglashga intilishni
- 3) O‘tmishga intilish va uni qayta tiklash istagini
- 4) Ko‘p kitob o‘qishning zararini

Javob: 1, 2, 3

10. Yozuvchi Migel de Servantes “Don Kixotning sarguzashtlari” asardagi shamol tegirmonlariga qarshi kurashishi Don Kixotning qaysi jihatini yaqqol ko‘rsatadi? Javobingizni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Uning dushmanlarini yengishga bo‘lgan jasoratini
- 2) Uning aqldan ozganligi va xayolotga berilganligini
- 3) Uning haqiqatni anglashga bo‘lgan intilishini
- 4) Uning ritsarlik romanlariga ishonchining to‘g‘riligini

Javob: 2

17	XX asr adabiyoti	Badiiy asardagi ramziy obrazlarni tahlil qila oladi.	Q	Qisqa javobli	12
----	---------------------	---	---	------------------	----

1. Rauf Parfining “Yomg‘ir yog‘ar” she’ridagi yomg‘irning ramziy obrazini keltirilgan javobning tartib raqamini yozing. (Qo‘llash)

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Men unga ochaman bag‘rimni.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Asta unutaman yomg‘irni.

1. Iztirobning 2. Quvonchning 3. Ilhomning 4.Vaqtning

Javob: 3

2. Rauf Parfining “Yana qaytib keldim...” she’rida “Shahlo ko‘zli mening targ‘ilim” so‘zлari qanday ramziy ma’noga ega?

Targ‘illanib bormoqda osmon,

Oppoq hidga to‘lmoqda bag‘rim.

Aytingiz-chi, bormi sog‘-omon,

Shahlo ko‘zli mening targ‘ilim?

A) Targ‘ilning tashqi go‘zalligi, faqat ko‘zлari haqida gapirilyapti

B) Muallifning ona yurtiga bo‘lgan sevgisi va sog‘inishini anglatadi

C) Targ‘ilning ichki dunyosini, uning his-tuyg‘ularini tasvirlash

D) Targ‘ilning shaxsiy baxti va yuksak maqsadlari haqida gapirilyapti

Javob: B

3. Rauf Parfining “Yana qaytib keldim...” she’rida “Tom ustida maysalar o‘sgan uyimizni sog‘indim, ona” satrida “tom ustida maysalar o‘sgan” ifodasi nimani anglatadi?

Qaytib keldim yana. Chang to‘zgan

Yo‘limizni sog‘indim, ona.

Tom ustida maysalar o‘sgan

Uyimizni sog‘indim, ona.

A) Shoirning hayotda yuksalishga bo‘lgan intilishi

B) O‘tmishdagi o‘zgarmas va tabiat bilan uyg‘unlikdagi hayot tasviri

- C) Shoirning o‘z ona yurtiga bo‘lgan sevgisi
- D) Yangi boshlanish va yangi imkoniyatlarga ishora

Javob: B

4. Rauf Parfining “Yoz kechasi” she’rida shoir yoz faslining qaysi asosiy jihatni ustuvor tasvirlaganini tartib raqamda yozing? (Qo‘llash)

Dalalarda mudraydi uyqu,

Dala yotar kutib quyoshni.

Ariqlarda doim uyg‘oq suv,

Polizlarga ketadi shoshib...

1. Yozning jazirama issig‘i va uning ta’siri
2. Yozgi kechalarining tinchligi va tabiiy uyg‘unligi
3. Yoz faslining og‘ir mehnat fasli ekani
4. Yozning yomg‘irli va salqin kechalari

Javob: 2

5. Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida “Mash’ali fikrat – sening, Ham changali vahshat sening” misralari insonning qaysi jihatini aks ettiradi? Javobni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

Mash’ali fikrat – sening,

Ham changali vahshat sening,

G‘ayrat-u g‘aflat sening,

Javlon o‘zing, uryon o‘zing.

1. Inson faqat ilm va donolik orqali yuksaladi
2. Inson bir vaqtning o‘zida ham aql-idrok, ham yovuzlik manbai bo‘lishi mumkin
3. Insonning mavjudligi shunchaki tabiat hodisasi.
4. Inson tarixda hech qanday iz qoldirmaydi.

Javob: 2

6. Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida Mehmon o‘zing, mezbon o‘zing” misrasida qanday falsafiy g‘oya ilgari surilgan? To‘g‘ri javoni tartib raqamda yozing. (Qo‘llash)

Bu yorug‘ dunyo nadur?

Koshonadur, vayronadur,

Senga mehmonxonadur,

Mehmon o‘zing, mezbon o‘zing.

1. Inson bu dunyoda vaqtincha yashaydi va o‘zi ham mezbon, ham mehmondir
2. Inson hayotda hamma narsaga egalik qiladi
3. Inson hayotini butunlay boshqara oladi
4. Inson jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar bilan yashaydi

Javob: 1

7. Erkin Vohidovning “Inson” qasidasida she’rning asosiy falsafiy mazmuni nimaga asoslangan? Javobni tartib raqamda ifodalang. (Qo‘llash)

- 1) Insonning jamiyatdagi o‘rni va taqdiri
- 2) Koinot va inson o‘rtasidagi bog‘liqlik
- 3) Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash
- 4) Inson tafakkuri va ilm-fanning taraqqiyoti

Javob: 3

8. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyon” dostonida bosh qahramon Nazrul Islomning “gunohi” nima deb ta’riflanadi? (Qo‘llash)

- A) U mustamlakachilarga qarshi chiqib, xalq ozodligi uchun kurashgani
- B) U o‘z oilasini tashlab, begona yurtda yashagani
- C) U boylik orttirish maqsadida vatanini tark etgani
- D) U she’riyat orqali jamiyatni tanqid qilgani

Javob: A

9. Shoir Erkin Vohidovning Aldanib qolg‘on yomon... she’rida “achchiq haqiqat” va “shirin yolg‘on” o’rtasidagi qarama-qarshilik qanday ma’noni anglatadi? (Qo’llash)

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg‘on yomon,
Ul shirin yolg‘onga mendek

- A) Haqiqat har doim inson uchun quvonch bag‘ishlaydi, yolg‘on esa faqat zarar keltiradi.
- B) Insonlar haqiqatni qabul qilishga qiynaladilar, lekin yolg‘onga aldanib yashash og‘ir oqibatlarga olib keladi.
- C) Yolg‘on haqiqatdan kuchli bo‘lib, inson hayotida muhim rol o‘ynaydi.
- D) She’rda haqiqat va yolg‘on o’rtasidagi farq shunchaki badiiy uslub sifatida ishlatilgan.

Javob: B

10. Shoir Erkin Vohidoyning So‘nggi qiyinalg‘on yomon... she’rida “So‘nggi qiyinalg‘on yomondir, So‘nggi qiyinalg‘on yomon” misrasi qanday ma’no yuklaydi?(Qo’llash)

Umrizmiz aldoq jahonda

Aldanib o‘tgay va
lek

So‘nggi qiyinalg‘on yomondir,

- A) Inson butun hayoti davomida azob chekadi va bu tabiiy holat.
- B) Hayotda qanchalik haqiqatdan qochmang, oxirida haqiqat bilan yuzlashish og‘ir bo‘ladi.
- C) She’rda insonning o‘lim oldidagi holati tasvirlangan bo‘lib, haqiqat bilan to‘qnash kelish kech bo‘lishi mumkin.
- D) Yolg‘on bilan yashagan insonning umr oxirida qiyinalishi muqarrar.

Javob: D

18	Mustaqillik davri adabiyoti	Badiiy asar obrazlar bilan bog'liq hukmlarni to'g'ri moslashtira oladi	Q	Qisqa javobli	12
----	--------------------------------	---	---	------------------	----

**1. Erkin A'zamning "Tango qayiq" dramasi haqidagi ma'lumotlarni moslashtiring.
(Qo'llash)**

1. Orol bobo	A) Orol boboning shogirdi, bekorchilikdan hushtak chalib o'tirardi.
2. Rohat Sobirovna	B) Mana, sen-u menga shuncha hunar o'rgatdi, ustozimiz, ko'rib ko'zi bir quvnavin, armonda ketmasin degan niyatda edim-da, xolos.
3. Qalimbet	C) U endi hech qachon o'zaniga qaytmaydi, to'lmaydi. Qayiqlaringiz ham birovga keraksiz
4. Genjamurod	D) Deputatlikka o'z nomzodini qo'ygan ishbilarmon ayol, Orol boboning qizi.
5. Gulxadicha	E) Soch-soqoli o'siq, yoshini bilib bo'lmaydigan bir qariya...
	G) Gapirganda ruscha so'zlarni qo'shib gapiradigan obraz

Javob:

1	2	3	4	5
E	G	C	A	D

2. Muhammad Alining "Ulug' sultanat" asari qahramonlari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

1. Amir Temur (Sohibqiron)	A) Amir Temuring nabirasi, ilm-fan va adolatga intilgan shaxs. U kelajakda buyuk olim va hukmdor bo'lishga nomzod qilib tayinlanadi.
2. Muhammad Churog'a dodxoh	B) Amirkodalaridan biri bo'lib, uning sultanating muhim ustunlaridan biri sifatida tilga olinadi. U kelajakda yurt boshqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga nomzodlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

3.Yildirim Boyazid	C) U uzoq yillar zindonda qiyalgan, ammo keyinchalik ozod qilingan shaxs. Uning qismati Sohibqironning inoyati bilan o'zgaradi.
4. Amir Muhammad	D) Urushdan keyin asir tushgan va qattiq iztirob ichida qolgan. U sultanati uchun fidokorona kurashgan bo'lsada, Sohibqironning kuchi oldida mag'lub bo'lgan.
5. Xalil Sulton	E) Aodiq va zukko maslahatchi, U hukmdorning qarashlari va maqsadlarini teran tushunadi, uning siyosiy va harbiy yurishlarini tahlil qiladi. U ehtiyyotkor, donishmand va chuqur fikrlovchi shaxs.
	G) Urush va sultanat yuki yillar davomida unga o'z ta'sirini o'tkazsada, hali ham buyuk jahongirlik orzularini amalga oshirishga intilmoqda. U tajribali, dono va adolatli hukmdor sifatida namoyon bo'ladi.

Javob:

1	2	3	4	5
G	F	D	C	B

3. Erkin A'zamning "Tanho qayiq" dramasi haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

1. Orol bobo	A) Zamonaviy, ammo qadriyatlarni hurmat qiladigan shaxs. U boboni juda hurmat qiladi, lekin zamon o'zgargani va yangi jamiyatda o'zgarishlarni qabul qilish zarurligini anglaydi.
2. Rohat Sobirovna	B) O'z manfaatlari uchun ishlovchi shaxs, o'zining xususiy manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadi. U faqat o'zi uchun foyda olishni o'ylaydi.
3.Qalimbet	C) Yangi zamon shifokori sifatida, zamonaviy davolash usullaridan foydalanadi. Uning harakati, zamonaviy tibbiyot va yangi usullarni o'zida mujassam etadi.
4.Genjamurod	D) Yangi zamonning vakili, zamonaviy fikrlar va siyosatga kirishga intiluvchi yosh ayol. Uning deputatlikka nomzod bo'lishi, siyosatga qiziqishi va eski uslublariga bo'lgan qarshi fikrlari asarda ko'rsatilgan
5.Gulxadicha	E) Eski an'analarga sodiq, tajribali va dono kishi , u o'zining o'tkir fikr va dono maslahatlari bilan shogirdlariga yo'l ko'rsatadi

Javob:

1	2	3	4	5
E	C	B	A	D

4. Erkin A'zamning "Tango qayiq" dramasi haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

1. Orol bobo	A) Orol boboning kelajakka moslashishini istaydi va uni yangicha fikrlashga chorlaydi.
2. Rohat Sobirovna	B) U yangilanish, o'zgarish va taraqqiyot tarafdori bo'lib, eski qadriyatlarning eskirganligini tushunadi.
3. Qayiq	C) Tabiat va inson o'rtasidagi uzilayotgan bog'liqlik.
4. Genjamurod	D) U shaxsiy manfaatlari yo'lida harakat qiladigan, zamon bilan moslashishga intiluvchi obraz.
5. Gulxadicha	E) Qadriyatlarni hurmat qiladigan, lekin yangi davr talablariga moslashishga qiynaladigan inson.

Javob:

1	2	3	4	5
E	D	C	A	B

5. Erkin A'zamning "Tango qayiq" dramasi haqidagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

Ma'lumot	To'g'ri	Noto'g'ri
1. Orol boboning asosiy iztirobi yangi talablarga moslasha olmasligi va eski qadriyatlarni saqlashga bo'lgan urinishi edi.		
2. Asarda "Qayiq" obrazi inson orzularining puchligi va hayotning abadiy emasligi ramzi edi.		
3. Orol boboning yagona umidi va qo'rquvi qayiqning yo'qolishi va orzularining barbod bo'lishi edi.		
4. Orol dengizining qurib borishi dramada insoniyat va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikning yo'qolishi ma'nosida keltirilgan.		

5. Gulxadicha obrazi dramada Orol boboga zamonaviy hayotga moslashish yo‘lini ko‘rsatadi.	
6. “Tanho qayiq” dramasini yangi qadriyatlarni doim eski an’analarni yo‘q qiladi deb xulosalash mumkin.	

Javob:

1	2	3	4	5	6
T	N	T	T	N	N

6. Erkin A’zamning “Tanho qayiq” dramasi haqidagi to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlarni moslashtiring. (Qo‘llash)

Ma’lumot	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1. Orol boboning qayiq yasashga bo‘lgan ishtiyoqi orzular va umidlar timsoli ramzi sifatida tasvirlangan.		
2. Asarda Orol bobo shogirdlarini har doim tanqid qiladigan obraz edi.		
3. Orol bobo zamonaviy hayotni yomon ko‘rgani uchun ham shogirdlarini shahar hayotidan qochishga, tabiat qo‘ynida bo‘lishga chaqiradi.		
4. Orol boboning “Orol qaytadi” degan ishonchi asarda kelajak avlod uchun umidni aks ettiradi.		
5. Asarda Orol dengizining qurishi qayiqlarning yaroqsiz qolishi orqali tasvirlanadi.		
6. Asarda qayiq Orol boboning mehnatsevarligi ramziy ma’nosini bildiradi.		

Javob:

1	2	3	4	5	6
T	N	N	T	N	T

7. Erkin A'zamning "Tarloq qayiq" dramasi haqidagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

Ma'lumot	To'g'ri	Noto'g'ri
1. Orol boboning qayiq yasashga bo'lgan ishtiyoqi orzular va umidlar timsoli ramzi sifatida tasvirlangan.		
2. Asarda Orol bobo shogirdlarini har doim tanqid qiladigan obraz edi.		
3. Orol bobo zamonaviy hayatni yomon ko'rgani uchun ham shogirdlarini shahar hayatidan qochishga, tabiat qo'ynida bo'lishga chaqiradi.		
4. Orol boboning "Orol qaytadi" degan ishonchi asarda kelajak avlod uchun umidni aks ettiradi.		
5. Asarda Orol dengizining qurishi qayiqlarning yaroqsiz qolishi orqali tasvirlanadi.		
6. Asarda qayiq Orol boboning mehnatsevarligi ramziy ma'nosini bildiradi.		

Javob:

1	2	3	4	5	6
T	N	N	T	N	T

8. Erkin A'zamning "Tarloq qayiq" dramasi haqidagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni moslashtiring. (Qo'llash)

Ma'lumot	To'g'ri	Noto'g'ri
1. Dramada muallif qadriyatlar va zamonaviylik o'rtaсидаги qarama-qarshilik muammosini ko'rsatadi.		
2. Orol bobo : "Jasdimni qayiqqa solib , Orolga eltib tashlang . Mayli, baliqlarga yem bo'lay", - deydi.		
3. Orol boboning yagona umidi hamma insonlarning dengizdan voz kechib, boshqa joyga ko'chib ketishidan iborat edi.		
4. Asardagi "qayiq" obrazi odamlarning yangi hayat qurish yo'li ma'noga ega.		

Javob:

1	2	3	4
